

TINGLAB TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

Shaxnoza Xikmatullayevna Akbarova

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti,

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasida dotsenti,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tinglab tushunishni rivojlantirishda amaliy mashq va topshiriqlar tizimining nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda tinglab tushunishni o‘qitishda izchillik va bosqichmalik, kommunikativ yo‘naltirilganlik, onglilik va faollik, individuallashtirish hamda integratsiyalashganlik tamoyillarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida tinglab tushunishni samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar tavsiflangan. Maqolada tinglab tushunishni boshqa nutq faoliyati turlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *tinglab tushunish, amaliy mashqlar, topshiriqlar tizimi, kommunikativ yondashuv, metodik tamoyillar, integratsiyalashgan ta’lim, metakognitiv strategiyalar, bosqichma-bosqich o‘qitish.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются теоретические основы системы практических упражнений и заданий для развития навыков аудирования. В исследовании анализируется значение принципов последовательности и поэтапности, коммуникативной направленности, сознательности и активности, индивидуализации, а также интегративного подхода в обучении аудированию. На основе научных взглядов зарубежных и отечественных ученых описаны методические подходы, способствующие эффективному развитию навыков восприятия речи на слух. В статье также обосновывается важность интеграции аудирования с другими видами речевой деятельности для формирования коммуникативной компетенции обучающихся.

Ключевые слова: *аудирование, практические упражнения, система заданий, коммуникативный подход, методические принципы, интегрированное обучение, метакогнитивные стратегии, поэтапное обучение.*

ABSTRACT

This article discusses the theoretical foundations of a system of practical exercises and tasks aimed at developing listening comprehension skills. The study analyzes the importance of such methodological principles as consistency and gradual progression, communicative orientation, consciousness and learner activity, individualization, and integration in teaching listening comprehension. Based on the scientific views of foreign and local scholars, effective methodological approaches for improving listening skills are described. The article also emphasizes the significance of integrating listening comprehension with other language skills in order to develop learners' communicative competence.

Keywords: *listening comprehension, practical exercises, task system, communicative approach, methodological principles, integrated learning, metacognitive strategies, step-by-step instruction.*

KIRISH

Amaliy mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda metodik tamoyillarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. J.C. Richards va T.S. Rodgers ta'kidlaganidek, "metodik tamoyillar o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy qoidalar bo'lib, ular mashq va topshiriqlar tizimining mantiqiy asosini tashkil qiladi"[1]. Ushbu bobda ishlab chiqiladigan mashq va topshiriqlar tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Izchillik va bosqichmalik tamoyili. Bu tamoyil J. Wilson tomonidan taklif etilgan uch bosqichli modelga asoslanadi: "tinglab tushunishni o'qitish matn oldi, matn ustida ishlash va matndan keyingi bosqichlarni o'z ichiga olishi kerak. Har bir bosqich o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo'lib, ular izchil ravishda amalga oshiriladi". J. Flowerdew va L. Miller ham xuddi shunday fikrni bildirib, "bosqichma-bosqich yondashuv talabalarning tinglab tushunish ko'nikmasini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi" [6], deb ta'kidlaydilar.

Kommunikativ yo'naltirilganlik tamoyili. L. Vandergrift va C.C.M. Goh bu tamoyil haqida shunday yozadilar: "tinglab tushunishni o'qitish real hayotiy muloqot vaziyatlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Mashq va topshiriqlar talabalarning real hayotda duch keladigan tinglash vaziyatlarini aks ettirishi lozim". J. Harmer ham bu tamoyilni muhim deb hisoblaydi va "kommunikativ yondashuv talabalarning tilni real kontekstda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi"[2], deb ta'kidlaydi.

Onglilik va faollik tamoyili. J. Field ta'kidlashicha, "talabalar tinglash jarayonining maqsadini, qanday strategiyalardan foydalanishni va natijalarni qanday baholashni tushunishlari kerak. Ular nafaqat passiv tinglovchi, balki faol ishtirokchi bo'lishlari lozim"[3]. L. Vandergrift va C.C.M. Goh ham bu borada shunday

yoʻzadilar: “metakognitiv strategiyalarni oʻrgatish orqali talabalar oʻzlarining tinglash jarayonini ongli ravishda boshqarish qobiliyatiga ega boʻladilar”[4].

Individuallashtirish tamoyili. M. Rost bu tamoyilni quyidagicha izohlaydi: “talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari, oʻrganish uslubi va ehtiyojlari turlicha. Shuning uchun mashq va topshiriqlar tizimi individual xususiyatlarni hisobga oladigan darajada moslashuvchan boʻlishi kerak”[5]. Oʻzbekistonlik olim U. Xoshimov ham “taʼlim jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish ularning motivatsiyasini oshirish va taʼlim samaradorligini taʼminlashning muhim sharti”[8], ekanligini taʼkidlaydi.

Integratsiyalashganlik tamoyili. J. Harmer taʼkidlaganidek, “tinglab tushunishni boshqa nutq faoliyati turlari (gapirish, oʻqish, yozish) bilan integratsiyalashgan holda oʻqitish samaraliroqdir. Chunki real hayotda bu koʻnikmalar bir-biri bilan chambarchas bogʻliq holda qoʻllaniladi”. J.C. Richards va T.S. Rodgers ham xuddi shunday fikrni bildirib, “integratsiyalashgan yondashuv talabalarning kommunikativ kompetensiyasini kompleks shakllantirish imkonini beradi”, deb hisoblaydilar.

XULOSA

Biz yuqoridagi tamoyillarning barchasini muhim deb hisoblaymiz, ammo ular orasida izchillik va bosqichmalik tamoyilini alohida taʼkidlash lozim. Chunki tinglab tushunish murakkab koʻnikma boʻlib, uni rivojlantirish bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab borishni talab qiladi. Matn oldi bosqichida talabalarni tayyorlamasdan, toʻgʻridan-toʻgʻri murakkab matnni tinglashga oʻtish samarasiz boʻladi. Shuningdek, kommunikativ yoʻnaltirilganlik tamoyili ham juda muhim, chunki talabalar tilni real hayotda qoʻllashni oʻrganishlari kerak, sunʼiy darslik matnlarini emas. Integratsiyalashganlik tamoyili esa tinglab tushunishni boshqa koʻnikmalar bilan bogʻlab oʻqitish orqali talabalarning umumiy kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Quyida ushbu tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgan mashq va topshiriqlar tizimi batafsil yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jack C. Richards, Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
2. Jeremy Harmer. *The Practice of English Language Teaching*. – London: Pearson Education, 2007.
3. John Field. *Listening in the Language Classroom*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.

4. Larry Vandergrift., Goh C.C.M. *Teaching and Learning Second Language Listening*. – New York: Routledge, 2012.
5. Michael Rost. *Teaching and Researching Listening*. – London: Pearson Education, 2011.
6. John Flowerdew., Miller L. *Second Language Listening: Theory and Practice*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
7. J.J. Wilson. *How to Teach Listening*. – Harlow: Pearson Longman, 2008.
8. U. Xoshimov. *Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.